



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба

чоп этилади.

Ўзбекистон худудида

тарқатилади.

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,

Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

э.л.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д., профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Кнарлик Карапетовна Арабян, Дилбар Хасановна Асланова, Мария Валерьевна Рубель Развитие предпринимательского мышления: опыт платформы системного развития «Бизнес созидание»	5
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Креатив иқтисодиёт индустриясининг мазмуни ва унинг назарий масалалари	10
Дилдора Собиржонова Джураева Пути повышения уровня жизни населения в Республике Узбекистан: теоретико-методологический анализ и практические рекомендации	19
G'olib Sultonmurodovich Mustafoyev, Sabina Baxtiyor qizi Xudoyberdiyeva Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi asosiy omillar	24
Аскар Хайдарович Джумаев Хулқ-атвор иқтисодиётининг қисқача мазмун-моҳияти, аҳамияти ва истиқболлари	28
Анвар Нематович Холиқулов Сервис фаолияти маданияти тушунчасининг назарий талқини	31
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Комил Бахрамович Уразов, Мадина Шайманкуловна Хушмуродова Тенденции развития электронной торговли в Узбекистане	35
Dilafroz Marufovna Vofaxojayeva Tibbiyot turizmini rivojlantirishda raqamlashtirishning o'rnini	39
Наргиза Музафаровна Бабаева Инновацияларнинг Ўзбекистон иқтисодий ривожланишидаги роли	45
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Muxitdin Abdusamidovich Aynakulov Agroklasterni tashkiliy jihatdan optimallashtirish negizidagi kooperatsion aloqa usullari, yo'nalish va mexanizmlari	50
Umar Xudayberdiyev, Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva O'zbekistonda go'sht yetishtirishdagi muammolar va ularning yechimi	53
Boburmirzo Botirovich Abduxobov Sutni qayta ishlash korxonalarida ta'minot zanjiri tizimining tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	56
G'ayrat Ablakulovich Ibragimov, Diyora O'tkir qizi Toshqulova, Shaxnoza G'ayrat qizi Ablakulova Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishda suv resurslaridan foydalanishning o'rnini	60
Akhror Abdihakimovich Shermatov The importance of intellectual capital in manufacturing enterprises in the economy	64
Barno Asatullojevna Mardanova Sut mahsulotlari ta'minot zanjiri: muammolar, imkoniyatlar va yechimlar	69
Eldor Toshtemirovich Xamdorov, Shuhrat Saidahmadovich Sharifov O'zbekiston qishloq hududlarida maishiy xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish	74
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Munavvar Farhod qizi Axrorova Samarqand viloyatida tibbiy xizmatlarni davlat-xususiy sherikchiligi asosida takomillashtirishning istiqbollari	77
Sanjar Nasriddinovich Nazarov Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axbarotlashtirish xizmatlarini tashkiliy mexanizmini takomillashtirish	82

Yuqoridagi tavsiyalar Samarqand viloyatining barqaror, chidamli va adolatli tibbiy xizmatlar tizimi sari bosqichma-bosqich o‘tishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son Farmoniga ko‘ra tasdiqlangan “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi.
2. Pardayev M.P, Mirzayev Q. J., va boshqalar “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. O‘quv qo‘llanma T: Iqtisod Moliya, 2014.
3. Polyakov I.V. [va boshqalar.]. Tibbiy sug‘urta sharoitida tibbiy xizmatlar marketing. Saratov, 1996.
4. Vasilenko N.V. “Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti”. Darslik. Moskva, 2020.
5. Fattah, Jamal, et al. "Forecasting of demand using ARIMA model." International Journal of Engineering Business Management 10 (2018): 1847979018808673.
6. Mahan M. Y., Chorn C. R., Georgopoulos A. P. White Noise Test: detecting autocorrelation and nonstationarities in long time series after ARIMA modeling //Proceedings 14th Python in Science Conference (Scipy 2015), Austin, TX. – 2015.
7. Jain G., Mallick B. A study of time series models ARIMA and ETS //Available at SSRN 2898968. – 2017.
8. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari.

<p>М.Ахророва</p> <p>Перспективы улучшения медицинских услуг в Самаркандской области на основе государственно-частного партнерства</p> <p>Аннотация. Целью исследования является изучение опыта Самаркандской области по совершенствованию сектора медицинских услуг на основе проектов «Государственно-частного партнерства» в развитии системы здравоохранения, что является актуальным вопросом в реализации стратегии социально-экономического развития страны. В статье научно обоснованы возможности развития сферы медицинских услуг, которая стала важным фактором повышения благосостояния населения и последовательного развития экономики республики.</p> <p>Ключевые слова: сфера услуг, система здравоохранения, медицинская услуга, инновационная экономика, качество медицинских услуг, модернизация медицинских услуг, модель ARIMA.</p>	<p>М.Ахророва</p> <p>Prospects for improving medical services in Samarkand region on the basis of Public-Private Partnership</p> <p>Abstract. The purpose of the research is to consider the current issue of the country's socio-economic development strategies in the development of the healthcare system, which is an urgent issue in the implementation of public-private partnership projects, using the example of the Samarkand region. This article scientifically substantiates the possibilities of developing the medical services sector, which has become an important factor in improving the well-being of the population and the sustainable development of the economy in the Republic.</p> <p>Keywords: service sector, healthcare system, medical service, innovative economy, quality of medical services, modernization of medical services, ARIMA model.</p>
--	--

Sanjar Nasriddinovich Nazarov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALOQA-AXBAROTLASHTIRISH XIZMATLARINING TASHKILY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotasiya. Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axborotlashtirish xizmatlarining ahamiyati, ularni samarali tashkil etishning zarurati va mavjud muammolar tahlil qilingan. Xususan, mamlakatimizda aloqa-axborotlashtirish tizimining holati o‘rganilib, tashkiliy mexanizmlarini yaratish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, aloqa-axborotlashtirish xizmatlari, tashkiliy mexanizm, xizmatlar sifati, iqtisodiy samaradorlik, raqamli transformatsiya.

Kirish. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot jahon miqyosida iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur‘atlar bilan rivojlanishi davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni yuzaga

keltirmoqda. Shu jumladan, aloqa-axborotlashtirish xizmatlari ham raqamli iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan.

Umuman olganda, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini rivojlantirish aholi turmush farovonligini oshirishda muhim vosita sifatida qarash mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-maydagi “Ma’muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni ham aynan aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish, mamuriy islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruvni samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlangan [1].

Aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish masalalari doimo dolzarb masalalardan biridir. Bunda iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish va qayta qurish asosida xizmatning yangi ko‘nishlari va boshqaruv jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Tadqiqotimiz davomida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha mualliflik qarashlarini berib o‘tamiz. Ayniqsa, bunday mexanizmlarni takomillashtirish raqamli iqtisodiyot sharoitida muhimlik darajasi oshib boradi.

Samarqand viloyati misolida olib borilgan tadqiqotlar ushbu hududda aloqa-axborotlashtirish xizmatlarini boshqarishning mavjud holati, muammolari va rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad – raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu xizmatlarni tashkil etish va boshqarish mexanizmini takomillashtirish, hududiy rivojlanishga xizmat qiluvchi samarali modelni ishlab chiqishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Raqamli iqtisodiyot – bu axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy model bo‘lib, unda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, taqsimlash, almashish va iste‘mol qilish jarayonlarining asosini tashkil etadi.

Aloqa-axborotlashtirish xizmatlari bu – axborot va ma‘lumotlarni uzatish, saqlash, qayta ishlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar majmuasidir. Ular jamiyatning barcha qatlamlarida – iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, davlat boshqaruvi kabi sohalarda keng qo‘llaniladi.

Mahalliy olimlarimizdan N.D.Xojiyevaning tadqiqotlarida mamlakatimizda telekommunikatsiya sohasini innovatsion faoliyatini joriy etish holatini namoyon qilish, holatni baholash va innovatsion infratuzilmani yaratish jarayoni uning subyektlarini takomillashtirish masalalarini ta‘kidlab o‘tganlar [2].

MDH mamlakatlari olimlaridan Y.V.Gumnits ham o‘zining nomzodlik dissertatsiya ishida axborotni boshqarish texnologiyalarini joriy etishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish mavzusida tadqiqot olib borib, axborot sohasida muvaffaqiyatli tashkiliy mexanizmning asosiy omillari va tashkilot faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yoritib berishni amalga oshirgan [3].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini rivojlantirishning tashkiliy mexanizmlarining uslubiy jihatlarini tahlil qilganda P.O.Yatsenko tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalarini tahlil qilib qarasaq, tashkiliy mexanizmni rivojlantirishda aloqa qurilmalarining o‘rnini muhim deb biladi. Olimning ishlarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari qurilmalari uchun asosiy shartlar qatoriga quyidagilarga ajratadi:

1) davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik samaradorligini oshiradigan yangi shakllarni izlash zarurati;

2) axborotni uzatish va qayta ishlashni jadallashtirish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatish va ularni takomillashtirish zarurati;

3) davlat boshqaruvini takomillashtirish: vositachilarni qisqartirish va davlat xizmatlari iste‘molchilari bilan bevosita o‘zaro munosabatlarga o‘tish;

4) ma‘muriy jarayonlar uchun xarajatlarni kamaytirish;

5) davlat boshqaruvi tizimining texnologik, moliyaviy va kadrlar resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, monitoring va nazorat qilish samaradorligini oshirish;

6) davlat boshqaruvi jarayonlarini belgilovchi strategiya va siyosatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish [4].

M.S.Agafonova va L.K.Kozyarskayalar tomonidan ham tashkilot va korxonalarining boshqaruv jarayonlarida axborot bilan ta’minlashni takomillashtirish, axborotlashtirish xizmatlarini amalga oshirishning muhim jihatlari to’g’risida izlanishlarni olib boradilar. Olimlar tomonidan korxonalar va tashkilotlarda axborot ta’minotini yaxshilash va axborotlashtirish xizmatlarini takomillashtirish orqali quyidagi vazifalarga erishiladi:

1. Ish haqi fondini qisqartirish hisobiga xarajatlarni tejash, kommunal xizmatlar, shartnomalar tuzish xarajatlari va boshqalar;

2. Kelajakdagi xarajatlarning oldini olish, xususan: xodimlar sonining kelajakda ko’payishiga yo’l qo’ymaslik, xodimlarning ortiqcha ish sarfini kamaytirish, ma’lumotlarni qayta ishlash shartlarini qisqartirish, texnik xizmat ko’rsatish xarajatlarini kamaytirish va boshqalar;

3. Nomoddiy manfaatlariga erishish: axborot sifatini oshirish, mehnat unumdorligini oshirish, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari, kechiktirilgan to’lovlarni qisqartirish, dasturiy ta’minotdan to’liq foydalanish kabilarni ilgari suradilar [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirish va ilmiy natijalarga erishishda ilmiy izlanishlar olib borilib, mahalliy va xorijiy manbalar tahlili, statistik ma’lumotlar tahlili, indeksiya va deduksiya metodlari, jadvallar bilan ishlash, tashkiliy mexanizmlarni yaratishda chizma tasvirlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi olimlarning fikr va mulohazalari, izlanishlarini o’rganish natijasida tahliliy qismlarni ham amalga oshirish maqolamizning dolzarbligi va natijadorligini oshiradi.

Zamonaviy aloqa va axborot tizimlari funksional bo’limlarning operatsion texnologiyalarini o’zgartirish, intellektual mahsulotlarni muomalaga jalb qilish, biznesning shaffofligini oshirish va shunga mos ravishda uning investitsiya jozibadorligi hamda kapitallashuvini oshirish orqali tashkilotni tashkiliy mexanizmlari va boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Axborotni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti. sifatida texnologiyalar orqali axborot texnologiyalarini joriy etishning ijobiy ta’sirini kamaytirishi mumkin bo’lgan asosiy salbiy omillarni aniqlaydigan tayyorgarlik bosqichida muvaffaqiyatga erishishdir. Axborot texnologiyalarini joriy etish aloqa xizmatlarini rivojlantirish uchun tashkiliy mexanizmlar va boshqaruv tizimini tayyorlash bosqichini yetarlicha baholamaslik butun boshqaruvni axborotlashtirishni buzishi mumkin.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini joriy etish va takomillashtirish qiymati yuqori ekanligini hisobga oladigan bo’lsak, korxonalar rahbarlarida aloqa va axborot xizmatlarining tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalar samaradorligini amalga oshirish va tahlili qilish, manzilli qilish ham juda muhim. Bugungi kunda aloqa va axborot xizmatlarining tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirishning ko’plab usullari mavjud, ammo amaliyot shuni ko’rsatadiki, ushbu usullardan alohida foydalanish kutilgan samarani bermaydi, chunki ularning barchasi ma’lum kamchiliklarga ega. Integratsiyalashgan baholash usuli asosiy ko’rsatkichlar uchun balanslangan ko’rsatkichlar texnologiyasiga asoslanadi. Albatta, bu ko’rsatkichlarning shakllanishi va rivojlanishiga muvaffaqiyat omillari ta’sir qiladi. Buni quyidagi jadvalda ko’rib chiqamiz.

1-jadval

Tashkiliy mexanizmi rivojlanishtirish muvaffaqiyatining asosiy omillari


№	Muvaffaqiyat omili	Strategiya	Asosiy ishlash ko’rsatkichi
1.	Sotish hajmini oshirish	Mijozlarga xizmat ko’rsatish sifatini oshirish	Hozirgi sof qiymat
			Savdo bo’limiga dolzarb ma’lumotlarni taqdim etish
2.	Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish	Aloqa materiallarini saqlash xarajatlarini kamaytirish	Aloqa xizmati xarajatlari indeksi
			Buyurtmalarni qabul qilish va qayta ishlash vaqtini qisqartirish
3.	Debitorlik qarzlarni qisqartirish	Qarzdorlar bilan ishlash sifatini oshirish, debitorlik	Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti

		qarzlarni doimiy nazorat qilish	
4.	Kompaniyaning rentabelligini oshirish	Aloqa va axborot mahsulotlarini sotish tannarxini pasaytirish	Qaytarilish muddati, investitsiya daromadi

1-jadval ma’lumotlari asosida shuni aytish kerakki, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini takomillashtirish, ularning tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish masalalari doimo dolzarb masalalardan bo‘lib, ularni amalga oshirishda muvaffaqiyat omillari va asosiy ko‘rsatkichlarga ta’sir etish strategiyalarini samarali tashkil qilishga erishish mumkin.

Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyatida aloqa-axborotlashtirish xizmatlari holatini tahlil qilish va bu orqali viloyatda aloqa va axborot xizmatlarini tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish ham muhimdir. Viloyatda so‘nggi yillarda mobil aloqa, internet tarmog‘i, raqamli televideniya va boshqa xizmatlar jadal rivojlanmoqda. Biroq ayrim chekka hududlarda sifatli internet xizmatlariga bo‘lgan ehtiyoj hanuzgacha dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa-axborotlashtirish xizmatlarini samarali tashkil qilish uchun zamonaviy, moslashuvchan va integratsiyalashgan tashkiliy mexanizm zarur. Samarqand viloyati sharoitida bunday mexanizmni shakllantirishda quyidagi asosiy tamoyillar e’tiborga olinishi lozim:



1-rasm. Tashkiliy mexanizm modeli

1-rasm orqali shuni aytish mumkinki, tashkiliy mexanizm modelini ishlab chiqish asosida Samarqand viloyatida aloqa-axborotlashtirish sohasini rivojlantirish xususiyatlari yaratiladi. Mexanizmni takomillashtirish yo‘nalishlari: loyihalarni davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirish, raqamli xizmatlarning yagona portalini yaratish, internet qamrovini kengaytirish va optik tolali tarmoqlarni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, har bir tuman kesimida raqamli infratuzilma holatini baholab, rivojlantirish xaritasini tuzishlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi.

Shunday qilib, axborot tizimi konsepsiyasiga kiritilgan texnologiyalardan foydalanish muvaffaqiyatli faoliyatning kalitidir. Agar biz aloqa-axborotlashtirish xizmatlarining maqbul tuzilmasini aniqlash va uning axborot oqimlarini boshqaruvni avtomatlashtirilgan axborot ta’minoti tizimiga to‘liq integratsiya qilish va hokazo kabi jihatlarga amal qilsak, ularni amalga oshirish sharti bilan ular boshqaruvni axborot bilan ta’minlashni takomillashtirishga, shuningdek, tashkilot va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Samarqand viloyatida raqamli

iqtisodiyot talablariga mos aloqa-axborotlashtirish xizmatlarini tashkil etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Hududda internet va raqamli xizmatlarning jadal rivojlanayotganiga qaramasdan, infratuzilma va kadrlar salohiyatidagi kamchiliklar tizimni samarali boshqarishga to‘siq bo‘lmoqda. Zamonaviy tashkiliy mexanizmi ishlab chiqish orqali raqamli xizmatlar sifatini oshirish, aholining raqamli savodxonligini kuchaytirish va hududiy raqobatbardoshlikni ta‘minlash mumkin. Aloqa-axborotlashtirish xizmatlari tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirishda quyidagi takliflarni amalga oshirsa maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz:

- Tashkiliy mexanizmi amaliyotga joriy etish orqali hududlarda raqamli infratuzilma, kadrlar va xizmatlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks mexanizmi joriy etish lozim;

- Internet infratuzilmasini rivojlantirish natijasida chekka hududlarda yuqori tezlikdagi internet xizmatlarini kengaytirish uchun maxsus davlat dasturlarini amalga oshirish;

- Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini takomillashtirish orqali aloqa va axborotlashtirish sohasida zamonaviy bilimlarga ega mutaxassislar zaxirasini shakllantirish va ish joylarni tashkil etish;

- Raqamli xizmatlar portalini yaratishda davlat va xususiy xizmatlarni yagona platformada taqdim etish orqali qulaylik va samaradorlikni oshirish;

- Innovatsion hamkorlikni kengaytirish orqali raqamli yechimlar ishlab chiqish va joriy etishga alohida e‘tibor qaratish, xizmatlarni tashkiliy mexanizmlarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023-yil 24-maydagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-76-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-6472528>
2. Xojiyeva Nazokat Davronbekovna. O‘zbekiston telekommunikatsiya sohasini innovatsion faoliyatini joriy holatini baholash // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2024. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekiston-telekommunikatsiya-sohasini-innovatsion-faoliyatini-joriy-holatini-baholash>
3. Гумниц Юрий Владимирович. Совершенствование организационных механизмов внедрения информационных технологий управления. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва-2011. 24 стр.
4. Яценко П.О. Совершенствование механизма государственного управления регионом с использованием цифровых технологий. Екатеринбург, 2024. 26 стр. https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/140666/1/m_th_p.o.yacenko_2024.pdf
5. Агафонова М. С., Козьярская Л. К. Совершенствование информационного обеспечения управления организацией // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 39. – С. 216–220. – URL: <http://e-koncept.ru/2017/970370.htm>

<p>С.Назаров</p> <p>Совершенствование организационного механизма коммуникационных и информационных услуг в условиях цифровой экономики</p> <p>Аннотация. В статье анализируется значение услуг связи и информатизации в цифровой экономике, необходимость их эффективной организации и существующие проблемы. В частности, было изучено состояние системы связи и информатизации в нашей стране и разработаны предложения по созданию организационных механизмов.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, услуги связи и информатизации, организационный механизм, качество услуг, экономическая эффективность, цифровая трансформация.</p>	<p>S.Nazarov</p> <p>Improving the organizational mechanism of communication and information services in the conditions of the digital economy</p> <p>Abstract. This article analyzes the importance of communication and information services in the digital economy, the need for their effective organization, and existing problems. In particular, the state of the communication and information system in our country is studied and proposals are developed for the creation of organizational mechanisms.</p> <p>Keywords: digital economy, communication and information services, organizational mechanism, quality of services, economic efficiency, digital transformation.</p>
--	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.